

REZYUME. Maqolada respublika iqtisodiy rayonlarining sanoatining mustaqillik yillarida diversifikatsiyalanishi hamda modernizatsiyalanishi va natijada ixtisoslashuvi o'zgarishining umumiy jihatlar tavsiflangan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассмотрены общие аспекты диверсификации и модернизации промышленности экономических районов республики за годы независимости и, как следствие, изменения в специализации.

SUMMARY. The article examines the general aspects of diversification and modernization of industry in the economic regions of the republic over the years of independence and, as a consequence, changes in specialization.

QISHLOQ XO'JALIGI TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH OMILLARI (Qoraqalpog'iston tabiiy sharoiti misolida)

U.X.Yeshimbetov – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: qishloq xo'jaligi, joylashtirish, tabiiy sharoit, dehqonchilik, chorvachilik, mehnat taqsimoti, tarmoq, ixtisoslashtirish, hududiy tashkil etish.

Ключевые слова: сельское хозяйство, размещение, природные условия, земледелие, животноводство, разделение труда, отрасль, специализация, территориальная организация.

Key words: agriculture, location, natural conditions, agriculture, animal husbandry, division of labor, branch, specialization, territorial organization.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti barcha tarmoqlarga, shu jumladan, qishloq xo'jaligiga ham taalluqli. Biroq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular iqtisodiy va tabiiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanish qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Aynan ushbu jihatlar tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlarini joylashtirishga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi [1]. Demak, muayyan tarmoq, ekin va chorva mollarini ustuvor rivojlantirish uchun alohida hududlar va korxonalarining qulay tabiiy-iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarishini ko'paytirish, uning sifatini oshirish, moddiy va mehnat harajatlari kamaytirish hamda qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni joylashtirish hamda ixtisoslashtirish doimo tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning mavjud imkoniyatlariga tayanadi. Bu borada K.I.Ivanov ma'lum hududda «tabiiy, iqtisodiy va mehnat resurslarining hududiy farqlaridan samarali foydalanish ijtimoiy mehnat unumdorligining yuqori cho'qqisini ta'minlaydi» [5], deb ta'kidlagandi.


Qishloq xo'jaligini joylashtirish obyektiv jarayon hisoblanib, tarmoqning muvaffaqiyotli rivojlanishi tabiiy, biologik, kapital va mehnat resurslardan samarali va oqilona foydalanish bilan bog'liq. Ushbu resurslarning hududlarda turli xil bo'lishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarining turlicha shakllanishiga zamin yaratadi.

Respublikamizga belgili iqtisodchi D.Tajiboyevaning ta'kidlashicha, sanoat taraqqiyotning bosh dvigateli mehnat quroli bo'lsa, agrar sektorda esa tabiiy omillar yetakchi rol o'ynaydi. Agrar munosabatlar va qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayoni iqtisodiy qonunlar bilan birga tabiat qonunlari ta'siri ostida ro'y beradi [12]. Tabiiy resurslar – bu butun ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi paydo bo'lgan va hali ham mavjud bo'lgan tabiiy asosdir. Qishloq xo'jaligida tabiiy omillar asosiy ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishning texnik vositalari muhim, lekin ikkinchi darajali rol o'ynaydi [13].

Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish salohiyatini belgilab beruvchi obyektiv omildir. Qishloq xo'jaligi salohiyatini belgilashda biz A.A.O'razaliev fikrini qo'llab-quvvatlaymiz. U «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish salohiyati – bu xo'jaliklar va hududlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ularning miqdor, sifat, tarkibiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, resurslar bilan belgilanadigan ma'lum hajmda yetishtirishning obyekt qobiliyatidir» deb ta'kidlaydi [8].

Har qanday hudud qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining oqilona joylashuvi va ixtisoslashuvi aniq tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, bozor iqtisodiyoti va boshqa sharoitlarni puxta, batafsil o'rganmasdan turib amalga oshirish iqtisodiy samaradorlikning past bo'lishiga hattoki xo'jalik inqiroziga olib keladi (1-rasm).

Olimlar bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishni ixtisoslashtirishga ta'sir qiluvchi omillarni tizimlashtirib, quydagicha taklif qilishadi: tabiiy-iqlim, tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-demografik [4]. Albatta ushbu omillar o'z ichiga tegishli elementlarni birlashtiradi.



1.2.1-rasm. Joylashtirishning asosiy omillari¹

Tabiiy omillar har doim bir qator omillar bilan uyg'unlikda ishlab chiqarishni joylashtirishda u yoki bu rolni o'ynaydi. Tabiiy resurslar ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirish, hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi [3].

Shuningdek, tabiiy resurslarning mavjudligi, ularning uyg'unligi, miqdor va sifat ko'rsatkichlari ishlab chiqarishning hududiy tuzilishi, tarmoq ixtisoslashuvini ma'lum darajada belgilaydi.

Tabiiy komponentlar ichida eng avvallo, iqlim, suv va tuproq, ya'ni agroiqlimiy resurslarning ahamiyati katta. Iqlim sharoitlari, harorat, yer osti va yer usti suvlari, tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi [11].

Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligi rivojlanishi va uning hududiy farqlarining shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligida mahsulot

¹ Muallif ishlanmasi.

etishtirishning yetakchi omili sifatida tabiatning barcha komponentlarini hisobga olish lozim. Har bir hududning tabiiy sharoiti (hudud yer yuzasining tuzilishi, iqlim, suv, o'simlik, tuproq va yer resurslari holati, yog'in-sochin miqdori) shu hudud dehqonchilik yoki chorvachilikning ma'lum bir yoki bir necha tarmog'ini ixtisoslashtirishga zamin yaratadi, relyef, iqlim, yer-suv resurslari, tuproq, o'simlik va hokazolarni o'z ichiga oluvchi tabiiy omillar tarmoqning rivojlanishi va hududiy tashkil etilishiga faol ta'sir etib, ushbu omillar uning salbiy yoki ijobiy oqibatlarida namoyon bo'ladi [9]. Ayniqsa, iqlim va tuproq ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish jarayonida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Iqlim resurslari – bu iqlim elementlari modda va energiyaning miqdoridir, uning qishloq xo'jaligida bevosita foydalaniladigan elementlari – radiatsiya, namlik, issiqlik, shamol va boshqa agroiklim resurslarini hosil qiladi [14]. Ushbu tabiat elementlar sanoat uchun tabiiy sharoit hisoblanadi.

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarni, umumiy va xususiy jihatlarini tushunib olish zarur. Eng avvalo ta'kidlash lozimki, har ikkitasida ham "tabiiy" so'zi bor; demak, ularning vujudga kelishi va rivojlanish qonuniyatlari asosan tabiiy, ya'ni g'ayrinsoniy jarayonlar bilan bog'liq bo'ladi. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning umumiy jihatlar bilan bir qatorda ularning o'zaro farqlari ham mavjud. Umuman olganda, tabiiy sharoit ko'proq muhit ma'nosida tushuniladi, u ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydi, undan moddiy ne'matlar yaratilmaydi; tabiiy sharoit aholi yashashi va ishlab chiqarishni joylashtirish uchun sifat ko'rsatkichlar kasb etadi, ya'ni u qulay yoki noqulay bo'lishi mumkin. Masalan, joyning iqlimi, yer usti tuzilishi kabilar uning tabiiy sharoitini ifodalaydi. Tabiiy resurslar esa (resurs-zahira, boylik) ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi va ular miqdor ko'rsatkichlariga ega bo'ladi [10].

Hududning harorat rejimi iqlimning eng muhim elementlaridan biri bo'lib, o'simliklarning rivojlanish jarayonini belgilab beradi. Ba'zi o'simliklar issiqlikni ko'p talab etadi. Masalan, g'o'zapoya gullash davrida intensiv o'sishi va rivojlanishi uchun optimal temperatura 35-37°S, boshqoli don ekinlari uchun 20°S bo'lishi kerak. O'simliklar sovuqqa chidamligi bo'yicha ham har xil bo'ladi. Jumladan, 1-2°S da g'o'zapoya nobud bo'lsa, kuzgi don ekinlari -20°S ga bardosh beradi [6]. Demak, o'simliklarning (bu yerda yoylov o'simliklari ham nazarda tutilmoqda) hosildorligi, umuman biomassaning to'lanishida iqlim elementlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ushbu omilni mintaqa doirasida ko'rib chiqamiz: Qoraqalpog'istonda yanvar oyining o'rtacha harorati -7,4°S, iyul oyiniki esa +26,6°S ni tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkichlar hududlar bo'ylab turlicha. Masalan, yanvarning o'rtacha harorati Qoraqalpog'istonda -9,8, Jasliqda -8,8, Mo'ynoqda -7,1, Shabanqazg'anda -8,8, Qo'ng'irotda -6,7, Chimboyda -7, Nukusda -6,4, To'rtko'lda -4,6 tashkil etadi. Iyul oyining o'rtacha havo harorati mos ravishda +26,2; +26,0; +25,9; 28,3; +25,3; +25,4; +27,1 va +28,4°S ga etadi.

O'simliklarning turiga qarab ularning donidan ko'karib chiqishi uchun turli xil issiqlik talab etiladi. Masalan, donli ekinlar uchun 1-3°S, chigit uchun 12-14°S bo'lishi lozim. Bu ko'rsatkichlardan ma'lumki, Qoraqalpog'iston hududida g'o'zapoya va kuzgi don ekinlarini o'stirish uchun havo xarorati etali darajada.

Qish faslida havo haroratining mutloq minimum ko'rsatkichi Ustyurt platosi va Qizilqumda -36 -38°S,

Amudaryo bo'yida -29 -32°S atrofida tebranadi. Havo haroratining bunday past bo'lishining salbiy va ijobiy taraflari bor. Masalan, sovuqqa chidamsiz qishloq xo'jaligi o'simliklarni kuz faslida tuproqqa ko'mish zaruriyatini taqozo etadi. Haroratning qish faslida past bo'lishining ijobiy tarafi shundaki, hasharotlar tuxumining nobud bo'lishiga olib keladi. Bu o'z navbatida vegetatsiya davrida o'simliklarni qo'shimcha kimyoviy va biologik usullar bilan himoyalash va qo'shimcha mablag' xarajatlarini kamaytirishga zamin yaratadi.

Yoz faslida havo haroratining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Havo haroratining yuqori bo'lishi issiqsevar qishloq xo'jaligi ekinlari uchun foydali bo'lsada, uning salbiy tomoni shundan iboratki, havo harorati 40°S oshganda ekinlar o'sish va rivojlanishi sekinlashadi, chorva mollari mahsuldorligi kamayadi. Bunday sharoitda ekinlarni ko'proq sug'orib turish, chorva mollariga qo'shimcha issiqdan saqlash tadbirlarini olib borish talab etiladi. Havo haroratining yuqori bo'lishining yana bir ijobiy tomoni shundaki, hasharotlarning ekinlarga zarar keltirish imkoniyati kamayadi. Bu o'z navbatida kimyoviy va biologik yo'llar bilan hasharotlarga qarshi tadbirlarni olib borish va qo'shimcha mablag'larni iqtisod qilish imkoniyatini beradi.

O'rtacha hisobda olganda respublika hududida yog'in-sochin miqdori 80-120 mm atrofida. Qoraqalpog'iston meteostantsiyalari bo'yicha bu miqdor farqlanadi. Masalan, Qoraqalpog'istonda yillik o'rtacha yog'in-sochin miqdori 135 mm, Mo'ynoqda 98 mm, Qo'ng'irotda 95 mm, Chimboyda 90 mm, Nukusda 87 mm, To'rtko'lda 86 mm ni tashkil qiladi.

Yog'in-sochin miqdori faqat hududlar bo'yicha farqlanib qolmasdan, mavsumlar bo'yicha ham tafovutlar kuzatiladi. Yillik yog'in-sochin asosiy bo'limi qish va bahor fasllarida yog'adi. Masalan, Shabanqazg'anda 72, Qo'ng'irotda 67, Qoraqalpog'istonda 55, Chimboyda 62, To'rtkulda 81 foizi qish va bahor oylariga to'g'ri keladi. Yog'in-sochin yoz mavsumiga to'g'ri keluvchi miqdori Qoraqalpog'istonda 22, Shabanqazg'anda 10, Qo'ng'irotda 15, Chimboyda 11, To'rtko'lda 7 foizni tashkil qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ma'lum bo'ladiki, Ustyurt platosida yog'in-sochin miqdori Amudaryo deltasi va Qizilqumga qaraganda ko'proq yog'ishi, mavsumlar bo'yicha nisbatan tekis taqsimlanganligi kuzatish mumkin. Bu Ustyurt platosida yaylovlar unumdorligining yuqori bo'lishiga va yil davomida chorvachilik maqsadida foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Qoraqalpog'iston hududiga nam havo massalari kirib keladigan Atlantika okeani bir necha ming kilometr uzoqda joylashganligi sababli respublika hududida juda quruq iqlim yuzaga kelgan. Qoraqalpog'iston iqlimining quruqligi yillik yog'in-sochinlarning juda kamligi va yoz oylarida havo harorati haddan tashqari isib ketishi bilan tavsiflanadi. Regionda yog'in-sochin miqdoriga qaraganda yillik bug'lanish 15-20 barobar yuqori. Bu o'simliklarning normal o'sishi va rivojlanishiga qiyinchilik tug'diradi. Shu sababdan dehqonchilik vegetatsiya davrida su'niy sug'orish bilan amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi ekin turlari va tabiiy o'simliklarning o'sib rivojlanishida bahorgi va kuzgi mavsumda o'rtacha sutkali temperatura +5°S dan yuqori bo'lgan kunlar amaliy jihatdan o'rganish tarmoq rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Vegetatsiya davri (+5°S) janubda eng uzun (240 kun) eng qisqa vaqt Qoraqalpog'iston Ustyurtining shimoliy qismiga (205 kun) to'g'ri keladi. Respublika hududida harorat +5°S dan yuqori bo'lgan davrdagi ijobiy

haroratlarning o'rtacha yig'indisi Qoraqalpog'iston Ustyurtida +3816° dan chekka janub (To'rtko'l) da +4742 gacha ya'ni shimoldan janubga qarab 926° ga o'zgaradi (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston meteostantsiyalari bo'yicha ba'zi iqlim elementlarining taqsimlanishi [7]

Meteostantsiyalar	Yanvar va iyul oylarining o'rtacha harorati		Bir yillik o'rtacha harorat, °S hisobida	O'rtacha vegetatsiya davri, kun hisobida	Samarali harorat yig'indisi, gradus hisobida		Yog'in-sochin miqdori mm hisobida
	Yanvar	Iyul			+5	+10	
Qoraqalpog'iston	-9,8	26,2	8,4	205	+3816	+3563	135
Jasliq	-8,8	26,0	8,8	210	+3880	+3546	102
Mo'ynoq	-7,1	25,9	9,8	216	+4003	+3751	98
Shaban-qazg'an	-8,8	28,3	10,5	219	+4398	+4174	87
Qo'ng'iro't	-6,7	25,3	9,9	223	+4028	+3751	95
Chimboy	-7,0	25,4	9,8	220	+4120	+3755	90
Nukus	-6,4	27,1	10,8	228	+4301	+4035	87
To'rtko'l	-4,6	28,4	12,5	240	+4742	+4452	86

Quyosh radiatsiyasining ko'p tushishi (136-140 kkal/kv.sm)[2], Amudaryo bo'yi sun'iy sug'ormali dehqonchilik olib boriladigan hududda samarali haroratlari

yig'indisining kattaligi (shimolda +5° yig'indisi 4003°, +10° yig'indisi 3751°, janubda mos ravishda +4742°, +4452°) janubda paxtaning o'rtapishar, uzumning va tarkibida qand moddasi ko'p bo'lgan mevalarni, shimolda paxta, uzum va mevalarning tezpishar navlarini yetishtirish imkonini beradi. Bu yerda poliz, sabzavot, donli va dukkakli o'simliklardan yuqori, shuningdek, chorvachilikni rivojlantirishning asosi bo'lgan ozuqa ekinlardan, jumladan, bedadan 4-5 marta, sudan o'tidan 3-4 marta, makkajo'xori va jo'xoridan ko'k massa holda 2 marta hosil olish mumkin. Iqlim sharoiti sitrus o'simliklar o'stirish uchun noqulay hisoblanadi. Cho'l hududlarida ham samarali haroratlari yig'indisi katta. Lekin bu hududlarda dehqonchilik qilish imkoniyati deyarli yo'q.

Tabiiy sharoitning chorvachilik tarmoqlari joylashishi va ixtisoslashishiga ta'siri eng avvalo hududning bevosita tuproq-iqlim sharoitiga bog'liq bo'lgan yem-xashak etishtirish hamda tabiiy yaylovlarning mavjudligida ko'rinadi. Shuningdek, tabiiy muhit dehqonchilik va chorvachilik tizimi, agrotexnik va meliorativ tadbirlar majmuasini olib borish jarayoni hududiy farqlarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida bayon etilgan mulohazalardan shu narsa ko'rinib turibdiki, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida iqlimning quruq va issiqligi, yog'in-sochin miqdorining kamligi sababli bu yerda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini, uning asosi bo'lgan dehqonchilikni sun'iy sug'orish yordamidagina tashkil etish mumkin.

Adabiyotlar

- Аминов Ф.Б. Ер ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг худудий хусусиятлари (Кашкадарё вилояти мисолида). Иктисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2004. 26-б.
- Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. – Тошкент: «Ўқитувчи». 1996.
- Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. – Тошкент: «Фан», 2006.
- Валецкая Т.И. Повышение эффективности специализации сельскохозяйственного производства в разнообразных природно-климатических условиях (на материалах Алтайского края). Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Новосибирск: 2021.
- Иванов К.И. Территориальные системы общественного производства. – Москва: «Мысль», 1975.
- Исмаилов У.Е. Дийканшылык. – Нөкис: «Билим». 2012.
- Матмуратов Дж. Агроклиматические условия северо-западного Узбекистана. – Нукус: «Каракалпакстан», 1989.
- Оразалиев А.А. Развитие экономического механизма аграрного производства потенциала региона (на материалах Ставропольского края): Автореф. дис. эконом. наук. – Майкоп:
- Ракитников А.Н. География сельского хозяйства. – Москва: «Мысль», 1970.
- Солиев А. Ўзбекистон географияси. (Ўзбекистон иктисодий ва ижтимоий географияси). – Тошкент: «Университет», 2014.
- Солиев А. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари. – Тошкент: «Университет», 2007.
- Тажибаева Д. Миллий иктисодиётда институционал ўзгаришлар самарадорлигини оширишнинг назарий асосларини такомиллаштириш (Ўзбекистон Республикаси аграр соҳаси мисолида). Иктисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2020.
- Трушин Э.Ф. Реформирование земельно-водных отношений как условие экономического роста (на примере Республики Узбекистан). Диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Тошкент: 1996.
- Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон чўл худудлари кишлок хўжалиги ривожланишининг иктисодий-географик омиллари. География фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Тошкент: 2017.

РЕЗЮМЕ. Maqolada qishloq xo'jaligini optimal joylashtirishning omillari Qoraqalpog'iston tabiiy sharoiti misolida o'rganilgan. Shuningdek, maqolada qishloq xo'jaligini joylashtirishning ba'zi nazariy tomonlariga diqqat qaratilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье изучены факторы оптимального размещения сельского хозяйства на примере природных условий Каракалпакстана. В статье также рассматриваются некоторые теоретические аспекты размещения сельского хозяйства.

SUMMARY. The article examines the factors of optimal location of agriculture using the example of the natural conditions of Karakalpakstan. The article also discusses some theoretical aspects of the location of agriculture.